

KATTA YO'L BOSHIDAGI TILAKLAR

Aziza Qudratovaning ertak va hikoyalarida ona tabiatning hali o'zingizga notanish va sirli dunyosiga dadil qadam tashlaysiz. O'zingizga tanish jonivorlar-larning xayolingizga ham kelmagan yangi qirralarini kashf etasiz. Chunki Aziza mahoratli kuzatuvchi va yaxshigina xayolparastdir. Uning «Elqanotning sarguzashtlari», «Tilla tangacha», «Tungi mehmon», «Oltin tariq» va «Mayna bo'lgan bedanalar» kabi ertaklarini o'qib, ijodkorning topqirligiga tan berasiz.



Azizaning «Elqanotning sarguzashtlari» nomli ertagini ilk bor Tursunboy Adashboyev tahriri bilan «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasida o‘qib chiqdim. Ertakni o‘qimadim, balki uni ekranda ko‘rsatilayotgan multfilmday tomosha qildim, desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Oddiy muqaddima, ammo qiziqarli yechim bilan yakunlangan sarguzasht siz bolajonlarni ham sehrlay olishiga aminman.

Mashhur ertakchi Xans Kristian Andersonning «Ertak – bolalar nigohini olovlantrira oladigan oltindir», degan mashhur iborasini yozganida, ertaklarning mo‘jizaviy va maftunkor kuchini tabiatdagi eng qimmatbaho toshning qudratiga ma’jозиy ma’noda tenglashtirgan



degim keladi. Aslida zo'r bir ertakning kuchi dunyodagi barcha nodir toshu javohirotlardan ortiqdir!

Albatta, ijodkorning asarlari kamchiliklardan xoli emas. U hali ko'p mashq qilishi, tinmay izlanishi lozim. Mashhur bolalar adibi Xudoyberdi To'xtaboyevning «So'qmoqlar» deb nomlangan ilk kitobidagi so'zboshida shunday satrlar bor: «So'qmoqlar... Ana shu so'qmoqlar yo'lovchini albatta katta yo'lga olib chiqadi. Faqat yo'lovchida qunt va chidam, istak bo'lsa bas...»

Katta yo'l boshida turgan Azizaga oq yo'l tilayman!

Muazzam IBROHMOVA





ELQANOTNING SARGUZASHTLARI

Elqanot ismli olifta chivin rosa zerikdi-da, birdaniga sayohatga chiqishni, boshqa joylarni ko'rishni istab qoldi.

Uning ota-onasi bir muncha oldin issiq qozonga yaqinlashaman deb olovda qanotlarini kuydirib olgan edi. Elqanot yangi qanot chiqishini sabrsizlik bilan kutayotgan ota-onasining roziligini ham olmay qoravoy ismli o'rtog'i bilan yo'lga chiqdi. Kunning issig'iga ham qaramay ular ishtiyoq bilan uchib ketaverishdi. Ko'p o'tmasdan semiz qoravoy charchadi. Dam olaylik deb turib oldi. Ozroq dam olib, yana uchishdi.

Oqshom tushdi. Quyosh g'arbgaga qarab yonboshladi, chivinlar o'zlari uchun boshpvana izlay boshlashdi. Qoravoy charchab, hansirab, och qolganidan Elqanotga ovqat topib berishini iltimos qildi.



Elqanot uning yalqov va yebto'ymasligidan ranjidi. Qoravoy o'zicha bir pana joy topdi-da, men shu yerda kutib turaman, sen ovqat topib kel, dedi. Elqanot qorong'uda ko'rshapalaklarga ko'rmaslikka urinib, bir amallab yegulik topib keldi.

Yarim tun. Hamma yoq qop-qorong'u, atrofda turli xil hasharotlar ovozi... Qoravoy apil-tapil ovqatlandi-da, uyquga ketdi. Elqanot esa uyidan birinchi marta olisda ekanligi uchunmi, uyqusi kelmasdi. Ertangi kun rejalarini o'ylab xayollari chalkashib, nihoyat ko'zlari ilindi.

Bir payt to'satdan ko'zlarida ajal sharpasi ko'rinish turgan bir maxluq ularning yoniga kelib qo'ndi. Elqanot bilan qoravoy uni ko'rib dahshatga tushishdi. Uning so'yloq tishlari orasida har xil hasharotlarning qoldiqlari shundoqqina ko'rinish turardi. Chivinlar hali bunday dahshatli maxluqni ko'rмаган edilar.

Omadni qarangki, ularning yonida najotkorlar – Elqanotning qanotsiz ota-onalari paydo bo‘lishdi. Elqanot ularni ko‘rib juda quvondi, qo‘rquvi ham bosildi, hatto unda ko‘rshapalakka hujum qilish ishtiyoqi ham paydo bo‘ldi. Biroq birgalikda hujum qilgan taqdirda ham ko‘rshapalakka kuchi yetmasligini bilib, chora izlay boshlashdi. Elqanotning otasi ko‘rshapalak faqat ovozga qarab ov qilishini bilardi. Shu bois u yonidagi-larga ovoz chiqarmaslikni buyurdi. Ammo ko‘rshapalak ham anoyilardan emasdi. U panjalarini har tomonga cho‘zib, o‘ljasini izlay boshladи. Elqanotning otasi esa bolalarini qutqarish maqsadida hech narsani o‘ylab o‘tirmay o‘zini tepadan pastga otdi va ovozining bori-cha baqirib ko‘rshapalakni chalg‘itdi. Qanolari kuygani uchun u balanddan to‘g‘ri pastga quladi. Onasi esa Elqanotning otasini qutqarish maqsadida tepalikdan



boshqa tomon uchdi. Bu holni qoravoy va Elqanot ko'rib qo'rquvlari yanada ortdi. Yonlaridagi ko'rshapalak hamon joyidan jilmasdi. Ota-onas chivinlar ovozlarining boricha baqirishardi. Bu shovqindan boshqa ko'rshapalaklar ham ular tomon uchib kela boshlashdi. Qoravoy bilan Elqanot dir-dir qaltiray boshladi. Ko'rshapalaklar Elqanotning ota-onasini quvlab ketishdi. Shunda qoravoy qo'rquvdanmi yoki jonini qutqarish maqsadidami, qorong'ulikdan ham cho'chimasdan qanotlarini yozdi-da uchishga shaylandi. Elqanot uni qanchalik tinchlantirmasin, qoravoy uni eshitmadi va uchib ketdi. Qoravoyning chinqiriq ovozi ko'rshapalakning e'tiborini tortdi va ortidan quvladi. Ular bir necha marotaba Elqanotning atrofida aylanib uchishdi-d, so'ng g'oyib bo'lishdi.



Elqanot qorong'ulik domiga tushib qolganidan mingming pushaymon yeb o'tiraverdi. Afsuski, endi kech edi. U mutloq yolg'izlanib qolgan, vaqt orqaga qaytsayu, yana o'sha oilasi – ota-onasining bag'rida bo'lsa...

Shu payt kimdir «senga nima bo'ldi, nega yig'la-yapsan», deb Elqanotni ovuta boshladi. Elqanot hayratlanib atrofga qaradi. Qarasa, atrof yorishib ketgan, osmonda qushlar sayrashardi. Yonida esa do'sti qoravoy. Elqanot bundan nihoyatda quvonib ketdi va ko'rshapalakdan qanday omon qolganini so'radi. Qoravoy hayron bo'ldi: «Qanaqa ko'rshapalak?!»

Elqanot bularning bari tushida ro'y berganini anglab, ota-onasi bag'riga shoshildi.





OLTIN TARIQ

Qadim-qadim zamonda tog' cho'qqisidagi minorada qirol mushuk yashar ekan. Uning saroyida faqatgina sichqonlar xizmat qilishar ekan. Qizig'i shundaki, qirol mushuk sichqon va kalamushlarni yemas, aksincha, ularga juda mehribon va xushmuomala ekan. Xizmatkorlar sichqonlardan birortasi bolalasa, ularning nomini ham qirol mushukning o'zi qo'yar ekan.

Kunlarning birida yarim tunda bir ona sichqon bolaslabdi. Qirol tunning qorong'uligiga ham qaramay, sichqonchaga nom qo'yish uchun yerto'laga tushibdi. Qarasa, yangi chaqaloq juda kichgina va tim qora emish. Saroyda hali bunday rangda sichqoncha tug'ilmagan edi. Mushuk unga qoravoy deb ism beribdi va o'z tar-



biyasiga olibdi. Ammo qoravoy juda erka, sho'x va bezori bo'lib ulg'aya boshlabdi.

Bir kuni qirol mushuk qoravoyga xazinasini ko'r-satibdi. Uning xazinasida juda mazali yeguliklar ko'p ekan. Ammo u g'aroyib qutichada saqlanadigan kichkinagina tilla tariqni hamma narsadan ustun qo'yar ekan.

- Bu oddiy tariq emas, Qoravoy. U menga ota-bobolarimdan qolgan. Uni avlodlarimga ham yetkazishim kerak. Nega desang, tilla tariq bor ekan, mushuklar sichqonlarni hurmat qilib, ularni himoya qilishadi. Shu vaqtgacha uni hech kimga ko'rsatmagan edim. Mana, o'rtamizdagi ahillik siridan sen ham voqif bo'lding.

Ammo qoravoyning qulqlariga bu gaplar kirmabdi. U sirli jilvalanayotgan tilla tariq o'ziniki bo'lishni xohlar edi.

Bir kuni tunda xazinaga o'g'rinchcha kirgan qoravoy tilla tariqni o'g'irlamoqchi bo'lib og'ziga solibdi. Sekin



xazinadan chiqib, yotog'iga yo'nalibdi. Ammo nima bo'libdi-yu, yo'lda tilla tariqni yutib yuboribdi.

Shu vaqt yero ko'k larzaga kelibdi. Qoravoy qarasa, qiroq saroyining devorlari birin-ketin qulay boshlabdi. Sichqonlarning bari sarosimada, arang jon saqlab qolishibdi. Shundagina qoravoy qilgan ishidan qattiq pushaymon bo'libdi, biroq endi juda-juda kech edi. Shu vaqt juda xunuk «mi-yo-ov» degan ovoz berib, xarobalar ostidan qiroq mushukning kallasi ko'rinishibdi. U juda jahldor va vahshiy ko'ringani uchun, sichqonlar o'z qirolini tanishmabdi.

Bundan qoravoyning badtar qo'rquvi oshib, o'zini qorong'ulikka urib ko'zdan g'oyib bo'libdi. Hech narsani tushunmagan juda ko'p sichqonlar mushuklarga yem bo'lishibdi.

Shundan so'ng qiroq va boshqa mushuklar sichqonlarni ovlab, tilla tariqni qidirishar ekan.





MAYNA BO'LGAN BEDANALAR

Adir etagidagi bedazor bag'rida Mittixon va Mallavoy ismli bedanalar ahil yashashar ekan. Ular hamma ishlarini bamaslahat qilishar, shuning uchun hayotlari tinch, ro'zg'orlarida baraka bor ekan. Ammo bir kuni nima bo'libdi- Yu, ularning inoqligiga ko'z tegibdi. Mittixon va Mallavoy arzimagan narsa ustida bahslashib qolishibdi. Bu tortishuv katta janjalga aylanib, Mahmadona laqabli maynaning qulog'iga yetib boribdi.

- Ana ahilligu, mana ahillik! - so'z qotibdi istehzo bilan sherigi Laqmaxonga, - kechagina ularni hammaga o'rnak qilib maqtashar edi.



– Kimni aytyapsan? - debdi Laqmaxon cho'zilib.

– Voy, haqiqiy laqmasanda! Tumshug'ingning tagidagi tomoshani ko'rmarysan, o'rtoq. Anavi bedanalarni aytyapman-da, hech tortishishmas edi. Mayli, yaqinroq borib qulq solay-chi, nima gap ekan? Hali hamma qushlarga yoyib chiqishim kerak.

Shunday deb, Mahmadona bedanalar janjallasha-yotgan tomonga qarab qanot qoqibdi. U qalin o'sgan bedalar panasiga yashirinib, bedanalar bahsiga qulq tutibdi. Mittixon va Mallavoy uni payqamay ham qolishibdi.

– Bas qilsang-chi! - dermish Mallavoy, tinmay bidirla-yotgan Mittixonni tinchlantirishga harakat qilib, - bu dalada yolg'iz bo'lmasak! Mahmadona eshitib qolsa bormi, sharmanda bo'lamiz!



– Eshitsa eshitar! qachongacha mana shu sassiq bedazorda yashaymiz. Ana, boshqa bedanalar alla-qachon chiroyli va zamonaviy to'rqovoqlarda sayrashyapti.

– Voy, aqlingni yedingmi, Mittixon! Sen o'sha to'r-qovoqlarga havas qilyapsanmi hali? Tutqunlik nimaligini bilmaysan-da!

– Qanaqa tutqunlik? Don-dunlari vaqtida berilsa, suvlari uzilmasa. To'rqovoqlarga-ku, ancha-muncha bedana yaqinlasha olmaydi. Ana, xursandliklaridan biram chiroyli sayrashadiki!

– Eh, Mittixon! Ularning ovozidagi dardni sezmasan-da! To'rqovoqlarga o'ralgan matolarni ham ko'rganmisan? Ular tabiat go'zalliklaridan, eng muhimi esa zarrin quyosh nurlaridan butunlay bebahra yashashadi.



Odamlarga yoqadigan qilib sayrashmasa, och qolishadi yoki bedanakabob bo'lib qozonga bosiladi.

– Yomon qo'rqtidng-da, Mallavoy?

– Mayli, hozir sen bilan bahslashish befoyda! Men zilol irmoq suviga bir sho'ng'ib kelay, ungacha tinchlanib qolarsan! - deya Mallavoy «pirr» etib uchib ketibdi.

Bu vaqt tortishuvga qulqoq tutib turgan Mahmadona gullab qolgan bedalar orasida dumalab mazza qilib kular edi. Mittivoy ketganini payqab Mallaxonni «yupatish»ga shoshibdi. «Mana mazza qilib mayna qilgani qush topildi», xayolidan o'tkazibdi bedanaxonni dardini tinglar ekan.

– Agar orzuungiz o'sha shinam qovoqlarning birida yashash bo'lsa, men sizga yordam beraman o'rgilay! - debdi Mahmadona ayyorlik bilan, - bedazorga erta tongda simdan to'qilgan uychalar qo'yiladi. Bittasining ichiga kirib o'tirib oling. Mittivoyning ham boshqa iloji qolmay ortingizdan kiradi. Ana o'shandan so'ng bedanavozlar

ikkingizga bitta chiroyli to'rqovoqning kalitini sovg'a qilishadi. Uchib-kirib, mazza qilib yashayverasizlar!

...Mittixon uning aytganini qilibdi.

Ammo bedana ovlovchilar «sovg'a qilgan» to'rquitoqqa tushgach, qilib qo'ygan ishidan nihoyatda pu-shayman bo'libdi. Tashqaridan qulflangan uycha o'zi o'ylaganday chiroyli emas ekan. Mittixon keng bedazoragi eski uyini, u yerdagi tinch va osoyishta kechgan hayotini sog'inibdi. «Ozodlikka hech narsa yetmas ekan», deb xo'rsinibdi parda teshigidan qadrdon bedazori tomon tikilib Mittixon. Hali ham bedanakabob bo'lib qolishidan sayroqi Mallavoy saqlab qolibdi.

Mittixonni aldagani Mahmadona esa har kuni to'rquitoq osilgan ishkomga qo'nib, ularni mayna qilar ekan.






TILLA TANGACHA

(*Ertak*)

Bor ekan-da yo'q ekan, och ekan-da to'q ekan. Surxon degan diyorda, shoshqin Amudaryoda juda ko'p baliqlar ahil va inoq yashashar ekan.

Daryodagi baliqlarning turi shu darajada ko'pligidan, sanab sanog'iga yetib bo'lmas, ammo Tilla tangacha ismli baliqcha yagona ekan. Hamma yog'i zarrin tangachalar bilan qoplangan bu baliqcha chiroyli suvo'tlar panasidagi mo'jaz uychada onasi bilan birga yashashar ekan.

U dunyoga kelishi bilan onasi daryo haqida ko'p narsalarni so'zlab bergen edi. Shuning uchun aqli baliqcha qirg'oqqa yaqin sayozlikda suzmas, baliqchilar to'r tashlaydigan joylarga yaqin yo'llamas va odamlarning ko'ziga tashlanmas ekan.



Kunlarning birida Tilla tangacha zerikibdi. Qiziquvchanligi ustun kelib, onasiga bergen va'dasi yodidan ko'tarilib, taqiqlangan qirg'oq tomon suzibdi.

U qirg'oqqa yaqin kelib, atrofni tomosha qila boshlabdi. Suv loyqa va juda sayoz edi. «Ko'radigan hech narsa yo'q-ku» pichirlabdi u sayozlikdagi toshchalarga urilib. Begona joyda yuragiga qo'rquv oralabdi.

Endi uyi tomonga suzaman deb, orqaga burilganida to'rga tushib qolibdi. Chiqib ketish uchun ancha urinib tipirchilabdi, foydasi bo'lmasabdi. O'zini har tomon urib, onasini, do'stlarini yordamga chaqiribdi. Afsus, uni hech kim eshitmay, Tilla tangacha hushini yo'qotibdi.

Bir payt ko'zini ochsa, juda go'zal joyda emish. Tiniq suv va xilma-xil suvo'tlar o'sib yotgan oynavand qasrda o'ziga o'xshagan jozibali baliqchalar suzib yurishar edi.



– Men jannatga tushdim shekilli-a, yaxshi qiz? – so‘z qotibdi yaqinroqda suzib yurgan oppoq baliqchaga qarab.

– Bu yerga tushganlarning hammasi avval shunday deb o‘ylashadi, - debdi o‘zini Oqoyim deb tanishtirgan baliqcha xo‘rsinib.

– Afsus, bu yer jannat emas, akvarium. Endi shu yerda yashaysiz.

– Akvarium deganingiz nimasi? Tushuntirib bering. Bu erga birinchi bor kelishim. Faqat tezroq bo‘ling uyimga qaytib ketishim kerak. Oyijonim xavotir oladilar

Oqoyim bu baliqchaning soddaligini ko‘rib, bir necha oy avval akvariumga tushgan ilk kuni yodiga tushibdi.

Uni uzoq yurtlardan bu yerga keltirgan edilar. Oqoyimni ulkan daryordan tutishgach, kichik oynavand idish-



chaga solib, qayerlarga olib borishmadi deysiz? Nihoyat shu yerga olib kelib qo'yib yuborishdi. Tor idishlardagi sasib qolgan suvlardan so'ng, bu akvarium unga avvaliga rohatijon tuyulgan edi. Biroq olislarda qolgan qadrdon daryosi, undagi do'stlarini endi faqat tushlaridagina ko'rardi.

—Akvarium - odamlarning ovunchog'i.

— Odamlar dedingizmi? - debdi qo'rqib ketgan Tilla tangacha. - Axir ular daryoda yashashmaydiku! Demak... demak, baliqchilarning to'ridan chiqa olmagan ekanmanda?! Voy sho'rim, endi nima qilaman? Oyijonimga nima bo'ladi?

Oqoyim yangi mezbonning tushkun ahvolini ko'rib, uni qanday ovutishni bilmas, zero o'zi ham taskinga muhtoj edi.

Amudaryoning shaffof suvlariga o'rgangan baliqcha bir kun o'tmay oynavand qasr ichidagi suv ta'midan



bo'g'ilə boshlabdi. Bir haftadan so'ng esa tamoman holdan toyib, kasal bo'lib qolibdi.

Gohi-gohida qasr ichiga mo'ralab, ochilib-yumila-yotgan kattakon ko'z ham uning betobligidan xavotirda ekanini bilmas edi. Tilla tangacha vahimali ko'zdan qo'rqib, ko'zchalarini chirt yumib yotardi.

Yana bir-ikki kundan so'ng chiroyli tovlanib turguvchi tilla tangalar qoraya boshladi, baliqchaning o'zi esa yana hushidan ketdi...

Shundagina akvarium egasi Olimjon baliqsevarligi tufayli shunday ajoyib baliqchaning o'limiga sababchi bo'lib qolishini tushunib yetdi. Qarasa, barcha baliqlar avvalgi ko'rkini yo'qotgan. Nega bunday bo'ladi? Qimmat suvo'tlar, zamonaviy suv tozalagich moslama, akvarium ichidagi mo'jaz toshchalaru, marjon qoyachalar baliqlarga nahotki yoqmasa?



U bir pas nima qilishini bilmay kalovlanib qoldi. So'ng bir qarorga kelib, akvariumni dast ko'tarib Amudaryo tomonga yugurdi...

Tilla tangacha o'ziga kelganida, boshini silab turgan onasiga va eski do'stlariga ko'zi tushdi. «Tush ko'ryapman shekilli, yana bir oz u xlabel» deya yonboshiga ag'darilibdi. Shu on og'zida qadrdon daryo suvining ta'mini sezib, o'rnidan sakrab turibdi. Qarasa, o'z uyi! Nahotki? Anavi, akvariumda ko'rgan baliqchalar bu yerda nima qilishyapti? Hammasi xursand, unga qarab jilmayib turiшибdi.

Shu payt Oqoyim asta suzib unga yaqinlashdi. Tilla tangachaga Olimjon ismli akvarium egasi o'zlari o'ylaganday yomon bola emasligi, aynan u baliqchalarni daryoga qo'yib yuborganini aytib beribdi.

Oyisi bo'lsa, o'g'li yo'qolib qolgach bir necha kun daryo baliqlari bilan uni izlaganlarini yig'lab hikoya qilibdi.

Tilla tangacha hammani xavotirga solgani uchun qon-qarindoshlaridan uzr so'rabdi. Ammo bir nechta yangi do'stlarini akvariumdan ozod bo'lishiga sababchi bo'il-ganidan quvonibdi.

Yana bir necha kundan so'ng Tilla tangachaning zarrin tangalari yana avvalgidek jilolana boshlabdi. Axir Amudaryo suvi shifobaxsh ekan-da!

Tilla tangacha Oqoyim bilan turmush qurib, uzoq va baxtli hayot kechirishibdi.





MEHR ISTAB

Qahraton qish kunlarining birida Dilshodning iti bolaladi. Bu xabar uni quvontirgani bilan onasi Sevaraxon opa bundan xursand bo‘lmadi...

Qish chillasi sovuq, tashqarida biror jonzot ko‘rinmaydi. Dilshod erkatoy kuchuklari va ularning onasiga boshpana yasadi. Ichiga somon to‘shab issiqliqina joy hozirladi.

Shunday bo‘lsa-da, kunlarning birida kuchuk-chalarning onasi qattiq kasal bo‘lib, holdan toya boshladi. Dilshod uni qancha parvarishlamasin, bir kuni it ko‘rinmay qoldi. Dilshod kuchuklarning onasini bir necha kun kutdi, ammo u qaytmadi. Onasini soq‘ingan va qorni och qolgan kuchuklar kechayu-kun-



duz ingrashardi. Dilshod kuchukchalarga Olapar va Ko'ktoy deb nom qo'yib, mittivoylarni sigir suti bilan boqa boshladи.

Bir kuni oyisi, kuchulkardan birini dugonasi Gulnoraning o'g'li Sobirga berish kerakligi haqida og'iz ochdi. Idishchaga iltilgan sut quyayotgan Dilshodning birdan kayfiyati tushib ketdi, chunki bu bola jonivorlarni qiy-nashni yaxshi ko'rар edi.

Yakshanba kuni uylariga Gulnora opa o'g'li bilan kirib kelishdi. Dilshod qanchalik qarshilik qilmasin, onasi Olaparni Sobirga berishga ko'ndirdi. Ular uzoq xayrlashdilar. Sobir kuchukni xafa qilmaslikka va'da berdi. Olapar ketgisi kelmay egasiga talpindi...

Oradan bir hafta o'tdi. Bir kuni Dilshod Olaparsiz zerikib qolgan Ko'ktoyni yetaklab sayrga olib chiqdi.



Beixtiyor oyoqlari Sobirlarning uyi tomon boshladi. Kun juda sovuq, hamma joy oppoq qor bilan qoplagan edi. Izg'irinni pisand qilmay kelayotgan Ko'ktoy ba'zan qor tagida ko'rinxmay qolsa-da, oldinga intilib, Dilshodni tezroq yurishga undar edi.

Sobirlarning uyi oldiga yetib kelishganida esa to'xtab, qattiq akkillay boshladi. To'satdan baland devor ortidan kuchukning ojiz g'ingshigan ovozi eshitildi. Dilshod uy egasini chaqirishni ham unutib, shoshib darvozani ochib ichkariga mo'raladi.

Ichki hissiyoti aldamagan ekan. Hovli chetidagi daraxt ostida, bo'ynida og'ir va uzun zanjiri bilan dir-dir qal-tirab Olapar turardi. Dilshodning oyoqlari orasidan sirl'yalib hovliga kirishni uddalagan Ko'ktoy bo'lsa, uni yalab-yulqash bilan ovora edi.



Dilshod sovuqdan qunishib qolgan Olaparni qo‘yniga olib, darhol zanjirdan bo‘sata boshladi. Shu payt Sobirning o‘zi ham ko‘rindi va hovliqqancha chaqirilmagan mehmonlarning yoniga yaqinlashdi:

– Dilshod, sen menga kuchukni o‘zing bergansan, qaytarib olishga haqqing yo‘q!

– Sen «Olaparga yaxshi qarayman» deb va’da bergen eding. Nega uni bu ko‘yga solding!

Sobir esa kuchukchaning ayblarini sanay ketdi:

– Bu laycha vazifasini bajarmaydi. Qachon qarasam qo‘schnimizning hovlisiga o‘tib, tovuqlarini quvlab yuradi. Uni deb, rosa gap eshitaman. Bir kuni bu aqlsiz kuchuk onam yopgan nonlardan birini olib qochdi. Men uni esi kirsin, xatosini tushunib yetsin deb zanjirlab qo‘ydum.



Dilshod uning javobini eshitib, «sen bemehr va shaf-qatsizsan» deya, Olaparni o'zi bilan olib ketishga chog'-landi. Uning yo'lini to'sgan Sobir kuchugini olib ketishiga yo'l bermadi. Dilshod unga hech bo'lmasa ikki-uch kunga uyiga olib borib, keyin qaytarib olib kelishiga ruxsat berishini so'radi...

Ertasi kuni oyisi Sevaraxon hovlida ikkita kuchuk bolasini ko'rib hayratdan qotib qoldi. Ammo o'g'lidan bo'lib o'tgan voqeani eshitgach, mo'ltirab turgan Ola-parning boshini siladi.

E'tibor va parvarishdan Olapar soat sayin tetiklasha boshladi. Ko'ktoy bo'lsa, sherigining qaytganidan shod-lanib uning atrofida dumalab, o'yin ko'rsatar edi. Dilshod hech qachon o'zini bunchalik baxtiyor his etmagan edi. Afsuski, ikki kun ikki soatdek o'tdi-ketdi. Dilshod o'z



so‘zida turadigan bola edi. U Olaparni yetaklab Sobirlarnikiga yo‘l oldi. Sobir o‘z kuchukchasini ko‘rib ko‘zlariga ishonmadi. Nimjon jonivor avvalgidek do‘mboq va tetik edi.

Dilshod Olaparni Sobirga berib, indamay ortga qayta boshladi. Ko‘cha muyulishida Dilshodning qorasi ko‘rinmay qolishi bilan Sobirning qo‘lidagi Olapar yulqinib, uning panjalaridan chiqishga urina boshladi. Sobir uni tutib qolishga harakat qilib, mahkamroq quchoqladi. Shu on kuchukning yonog‘idan sizib tushayotgan bir tomchi yoshga ko‘zi tushdi. Bu holatga Sobir ortiq qarab tura olmadi va Dilshodning ortidan yugurdi...

Ko‘zlar qizargan Dilshod Sobirning ovozidan to‘xtab, orqaga qaraganida u tomon Olapari chopib kelardi.



- Men ham sendek unga mehr bilan qaraganimda, meni hech qachon tashlab ketmas edi. Olapar egasini tanladi oshna! U senda qolsin!

Sobirning gaplarini eshitgan Dilshod quvonib, atrofida gir aylanib sakrayotgan Olaparni ergashtirib uylari tomon shoshdi.

Orqa oyog'ida turib darvozani ochishni o'rgangan Ko'ktoy bo'lса, allaqachon ularni ko'cha boshida kutib turar edi.



TUNGI MEHMON

«Taq-tuq» degan ovozdan uyg'onib ketdim. Hali tong yorishmagan ekan. Karavotdan turmay, g'alati ovozga qulq solib yotdim.

«Taq-taq-tuq» – yana ovoz keldi. O'rnimdan turib, chiroqni yoqdim, soatga qarasam tungi ikki. Ovoz eshik ortidan kelardi. Yarim kechada eshik qoqayotgan kim ekan? Ajina-pajina bo'lса-chi? Qo'rquvdan oyog'imning uchigacha qaltirab, joyimda bir oz qotib turdim.

«Iltimos, yordam bering!» degan ojizgina zorlanish-dan so'ng, eshik oldiga kelib, kimsiz deya so'radim.

– Iltimos, bir kecha uyingizda tunab qolay, yo'lda adashib qoldim, tashqarini qalin qor qoplagan, uyimni topa olmayapman.

Men uning kimligini so'radim.

Tungi mehmon o'zini ta'riflay boshladi:


– Ikkita oyog'im, ikkita qo'lim, ikkita ko'zim, mayin va oppoq yungim, kichkinagina dumcham va ikkita shal pang quloqlarim bor, - degandan so'ng uning kimligini taxmin qildim.

Eshikni ochganimdaostonada sovuqdan dag'-dag' qaltiragancha oppoq quyonoy turardi. Uni ichkariga taklif qildim. Biz birga choy ichib tong ottirdik. Quyonoy uyda qolgan bolalaridan xavotirda edi. Uning gaplariga qaraganda, qish qattiq kelgani uchun g'amlab qo'ygan zahiralari tugagan. Kecha peshindan so'ng biron yegulik topish ilinjida uyasidan tashqariga chiqqach qorbo'ronda adashib qolgan.

Tong otdi. Eshikni ochmoqchi bo'lib itarib ko'rdik. Ochilmadi. Aftidan ertalabgacha yoqqan qor bizni uy asiriga aylantirgan edi. Ikkalamiz urinib, arang uni qiya ochdik, ammo qalin qor tufayli tashqariga chiqishning iloji yo'q edi.

– Endi nima bo'ladi, – yig'lab yubordi xayoli och bolalarida turgan mehmonim. – Qor hali-beri erimasa kerak. Kichkintoylarim ochlikdan nobud bo'lishadi-ku!

Men unga yig'lamaslikni, albatta biron ta chora topishimizni aytib ovutgan bo'ldim. Derazadan qarab, uyimizning ustida aylanib uchayotgan qarg'aga ko'zim tushib sevinib ketdim.



– Qarg‘ajon, hoy qarg‘ajon, – deb chaqirdim uni.

Qarg‘a «nima gap, tinchlikmi?» deb pastlay boshladi.

Men hamma voqeani bir boshdan gapirib berdim.

– Iltimos bizga yordam ber! Sening ko‘zlaring o‘tkir, quyonoyning uyini topa olasan.

Deraza raxiga qo‘ngan qarg‘a uzoq jimlikdan so‘ng:

– Agar mening qornimni to‘yg‘izsang, albatta, yordam beraman, – dedi.

Quyonoy ikkimiz xursand bo‘lib, uni uyga taklif qilib, qornini to‘yg‘izdik. Shundan so‘ng u gap boshladi:

– Men quyonoyning uyini bilaman. Afsus, uycha qalin qor ostida. Quyonchalarni qutqarib olish uchun uch-chalamizning kuchimiz kamlik qiladi. Qor erishini kutadigan bo‘lsak, suv uychani yuvib ketishi mumkin. Men o‘rmon chetida yashaydigan ayiqpolvonni uyg‘otishga harakat qilib ko‘ray.

Qarg‘a shunday degach, derazadan tashqariga o‘rmon tarafga carab uchib ketdi.

Bir ozdan so‘ng qor uyumlarini kimdir sura boshladi. Ochilgan yo‘lakchada ayiqpolvonning haybatli gavdasi

ko'rindi. Qarg'a bo'lsa, uyqusirayotgan polvonning yo'lda yana uxbab qolmasligi uchun boshi uzra tinmay qag'illab kelar edi. Ayiqpolvon men va quyonchani ustiga mindirib, qarg'a ko'rsatgan tomonga yo'l ochib keta boshladи.

«Yetib keldik» dedi yo'l boshlovchimiz qari emanga uch-to'rt qadam qolganida. Quyonoy ham qadrdon daraxtni tanib chehrasi ochildi. Ayiqpolvon qarg'a ishora qilgan joyni asta kavlay boshladи. Bir ozdan keyin kichik yog'och eshikcha paydo bo'ldi. Shoshib ichkariga kirgan quyonoy bolalarini soppa-sog' ko'rib yana yig'lab yubordi. Men bo'lsa, uyimdan olib kelgan sabzi va karamlarni ularning dasturxoniga qo'ydim. Men eskigina uychani ko'zdan kechirib, quyonoy va quyonchalarga bir muddat menikida yashab turishni taklif qildim.

Quyonchalar meni dada deb chaqira boshlashdi. Negaki mening o'zim ham quyon edim-da. Biz birgalikda baxtli hayot kechira boshladik.

MUNDARIJA

Katta yo'l boshidagi tilaklar.....	3
Elqanotning sarguzashtlari.....	7
Olin tariq.....	13
Mayana bo'lgan bedanalar.....	17
Tilla tangacha.....	23
Mehr istab.....	31
Tungi mehmon.....	38

